

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**AZAMATOVA GULNOZA SUNNATOVNA**

**NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDA SON KATEGORIYASINING  
QIYOSIY TAHLILI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2026**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Azamatova Gulnoza Sunnatovna**

Nemis va o‘zbek tillarida son kategoriyasining qiyosiy tahlili..... 3

**Азаматова Гулноза Суннатовна**

Сравнительное исследование категории числа в немецком и узбекском языках ..... 25

**Azamatova Gulnoza Sunnatovna**

Comparative study of of the category of number in German and Uzbek ..... 51

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 55

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**AZAMATOVA GULNOZA SUNNATOVNA**

**NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDA SON KATEGORIYASINING  
QIYOSIY TAHLILI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2026**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Fil3815 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida www.samdhti.uz hamda "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Mirzayev Ibodulla Kamolovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponenlar:**

**Begmatov Muxtor Begmatovich**  
filologiya fanlari nomzodi, professor

**Ro'ziyev Yarash Bazarovich**  
filologiya fanlari doktori, (DSc), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli Ilmiy kengashning "19" *iyun* 2026-yil soat 10<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36; e-mail: info@samdhti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (*63192*-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "5" *iyun* kuni tarqatildi.  
(2026-yil "5" *iyun* da) No *171*-raqamli reyestr bayonnomasi).



**N.Z. Nasrullayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**O'.O'. Qo'ldoshov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent

**D.A. Kiselyov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida grammatik kategoriyalarni qiyosiy-tipologik yondashuv asosida tadqiq etish til tizimlarining universal qonuniyatlari hamda milliy o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Son kategoriyasi miqdoriy munosabatlarni ifodalovchi asosiy grammatik kategoriya sifatida ot, olmosh va fe'l tizimlari bilan uzviy aloqada shakllanadi hamda sintaktik moslashuv va semantik aniqlikni ta'minlaydi. Nemis va o'zbek tillarida son kategoriyasining formal ifodalanishi, grammatik shakllanishi va funksional yukidagi farqlar ushbu kategoriyani chuqur qiyosiy tahlil qilishni talab etadi. Mazkur jihatlar son kategoriyasining til tizimidagi o'rni va nutqdagi namoyon bo'lishini aniqlash orqali nazariy tilshunoslikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Dunyo tilshunosligida qiyosiy tilshunoslik va tarjimashunoslik yo'nalishlarida olib borilayotgan tadqiqotlar tillararo va madaniyatlararo munosabatlarni chuqurroq anglash, tarjima sifatini takomillashtirish hamda xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan, O'zbekiston va Germaniya o'rtasida ta'lim, ilm-fan va til sohalarida kengayib borayotgan hamkorlik qiyosiy tilshunoslik hamda tarjimashunoslik yo'nalishlarida yangi tadqiqotlar olib borish uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "Ilmiy-ma'rifiy almashuvlar sohasida yetakchi oliygohlar sherikligi uchun platformani ishga tushirish, Gyote instituti va Germaniyaning boshqa tashkilotlari bilan hamkorlikda nemis tili o'qituvchilarini tayyorlash bo'yicha dasturlar ishlab chiqish muhim, deb hisoblaymiz"<sup>1</sup>, degan fikrlari O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi ta'lim hamda til sohasidagi hamkorlikning izchil rivojlanayotgani barcha fan sohalar bilan bir qatorda, qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tipologiya yo'nalishlarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Xususan, o'zbek va nemis tillarining leksik-semantik, grammatik, sintaktik hamda pragmatik xususiyatlarini qiyosiy o'rganish ushbu tillarning o'ziga xos va umumiy jihatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi O'zbekiston sharoitida tilshunoslik masalalari qiyosiy tilshunoslik, tarjimashunoslik tadqiqotlariga yondashgan holda nemis va o'zbek tillarini qiyosiy o'rganish, ularning o'ziga xos unsurlar tadqiqiga bag'ishlangan ishlar yuzaga kelmoqda. Shu ma'noda son kategoriyasini tahlil qilish, ikki tilga xos unsurlarni semantik, grammatik jihatdan tizimlashtirish muhim hisoblanmoqda. Bu ona tilimizni o'zaro boshqa tillar bilan qiyosiy o'rganish sohasida olib borilayotgan ishlar ko'lamining ortib borayotganida ham kuzatildi. Ta'kidlash joizki, nemis va o'zbek tillarining grammatik toifalari bilan bog'liq masalalar yetarlicha tadqiq qilinmaganligi, o'zbek tilining xalqaro miqyosda o'rganilishi, nemis tilining dunyo miqyosida ahamiyatining oshishi bu ikki tilni qiyosiy tadqiq qilinish, amaliy xarakterdagi muammolarni hal qilish va tarjimadagi lingvistik muammolarni tahlil qilishni talab qilmoqda. Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "Biz davlat tili taraqqiyotini jahondagi yetakchi xorijiy tillar va mamlakatimizdagi turli

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Markaziy Osiyo – Germaniya" ikkinchi sammitidagi nutqi // <https://www.gazeta.uz/oz/2024/09/17/summit-germany/>. (Murojaat sanasi: 17.06.2025)

millat vakillarining tili va madaniyatini rivojlantirish bilan bog‘liq holda ko‘ramiz”<sup>2</sup>, deb alohida ta’kidlashlari, boshqa tomondan, bunday tadqiqotlar o‘zbek tilining grammatik tavsiflarini takomillashtirish zaruratini belgilab beradi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847- sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi”gi farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to‘g‘risida” qarori, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son “Ta’lim muassasalarida chet tillarni o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi 312-son “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining I “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahon tilshunosligida grammatik son kategoriyalarni yoritish, izohlashga doir ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Xususan, nemis tilshunosligida tilning grammatik xususiyatlarini strukturaviy va funksional jihatdan V.G.Admoni, E.I.Shendels, K.Duden, V.Yung, H.Glins, T.Ziebs, P. Kiparskiy, O.Bexagel, G.Helbig, J.Busha, G.Zifonun, P.Ayzenberg L.Hoffman, B.Shtreker, P.Gallman, tarixiy-fonetik jihatdan Y.Grimm; falsafiy jihatdan V.Gumboldt; etimologik jihatdan H.Paul, G.Kurtius, K.Brugman, B.Delbruk kabi yetuk tilshunos olimlar tomonidan ilmiy-nazariy asosda muhim tadqiqotlar olib borilgan<sup>3</sup>. Ularning ishlari nemis tilining grammatik tizimini,

<sup>2</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbek tili bayrami va o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 34 yilligi bilan O‘zbekiston xalqi uchun so‘zlagan nutqi// <https://www.gazeta.uz/oz/2023/10/21/uzbek-language/>. (Murojaat sanasi: 14.07.2025)

<sup>3</sup>Admoni W.G. Der deutsche Sprachbau. – Leningrad, 1972. –303 S.; Шенделс Е.И. Современный немецкий язык. Морфология. –Москва: Высшая школа, 1973. –239 с.; Duden. Die Grammatik. Unentbehrlich für richtiges Deutsch. – Mannheim: Dudenverlag, 2005. – 1216 S.; Jung W. Grammatik der deutschen Sprache. – Leipzig: VEB Bibliographisches Institut, 1968. –544 S.; Glinz H. Grammatik mit Sinn und Verstand. – München: Auer Verlag, 1978. – 288 S.; Siebs Th., Deutsche Bühnenaussprache. –Hannover: Schrödel, 1898. –230 S.; Kiparsky P. Phonological Chang. – Dordrecht: Foris, 1985. –160 S., Behaghel O. Deutsche Syntax. – Heidelberg: Carl Winter, 1923–1932. –1500 S.; Helbig G., Buscha J. Deutsche Grammatik. Ein Handbuch für den Ausländerunterricht. –

grammatik kategoriyalarini, gap tuzilmasini hamda tarixiy rivojlanish bosqichlarini tahlil qilishda mustahkam metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbek tilshunosligida tasviriy usul, sistem yondashuv, uzviy va matnli tahlil asosida son kategoriyasi tizimli ravishda o‘rganilgan. Bunda A.Kononov, A.G‘ulomov, Sh. Rahmatullayev, R.R.Sayfullayeva, A.Xo‘jayev, Y.Tojiyev, A.Nurmonov, U.Tursunov, H.Ne‘matov, G‘.Zikrillayev, Sh.Shaxobiddinova I.Rasulov, F.Safarov va boshqalar<sup>4</sup> tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar katta ahamiyatga ega.

O‘zbek tilshunosligidan son grammatik kategoriyasi dastlab prof. A.G‘ulomov tomonidan tadqiq qilingan<sup>5</sup>. Keyinchalik F.Safarov “O‘zbek tilida son-miqdor mikromaydoni va uning lisoniy-nutqiy xususiyati” nomli tadqiqotida o‘zbek tilida birlik va ko‘plikning ifodalanishi masalasiga maydon sifatida yondashadi<sup>6</sup>.

Nemis va o‘zbek tillaridagi son kategoriyasining qiyosiga doir amaliy ishlar Y.R.Benyaminov tadqiqotlarida kuzatiladi<sup>7</sup>. Ammo son kategoriyasi nemis va o‘zbek tillari materiali asosida alohida qiyosiy tadqiqot obyekti sifatida tahlil qilinmagan. Mazkur holat tadqiqot ishining dolzarbligi asoslab, uning keng ko‘lamda o‘rganish zaruriyatini taqozo etadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbek tili va adabiyoti ta’limining dolzarb masalalari” mavzusidagi amaliy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** nemis va o‘zbek tillaridagi son kategoriyasining tahlili, ularning o‘ziga xosliklari va farqlarini ochib berishdan iborat, bu esa lingvistik bilimlarni kengaytirish va qiyosiy lingvistika sohasiga yangi yondashuvlarni taklif qilishni ko‘zda tutadi.

**Tadqiqotning vazifalari** o‘zbek tilining agglyutinativ va nemis tilining flektiv xususiyatlari hisobga olingan holda, ushbu tadqiqotda son kategoriyasining morfologik, leksik va sintaktik darajadagi ifodalanish usullarini qiyosiy-lingvistik yondashuv asosida tizimli ravishda dalillash;

---

Leipzig: Enzyklopädie, 1987. –544 S.; Zifonun G., Hoffmann L., Strecker B. Grammatik der deutschen Sprache, 3Bände. – Berlin: de Gruyter, 1997. –3500 S.; Gallmann P. Grammatische Kategorien im Deutschen. –Tübingen: Niemeyer, 1996. –378 S.; Grimm J. Deutsche Grammatik. – Göttingen: Dieterichsche Buchhandlung, 1819-1837. – 2000 S.; Brugmann K. Grundriss der vergleichenden Grammatik der indogermanischen Sprachen. – Strasbourg: Trübner, 1886-1893. –2000 S.; Humboldt W. Über die Verschiedenheit des menschlichen Sprachbaues. – Berlin: Dümmler, 1836. – 492 S.; Curtius G. Grundzüge der griechischen Etymologie. – Leipzig: Tübner, 1858. – 365 S.; Paul H. Prinzipien der Sprachgeschichte. – Halle: Max Niemeyer, 1880. –446 S.; Delbrück B. Einleitung in das Sprachstudium. – Leipzig: Breitkopf und Härtel, 1880. –148 S.

<sup>4</sup> Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. –Москва-Ленинград, 1960. – 450 с.; Фуломов А. Ф., Аскарлова М. А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1965. –316 б.; Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: Universitet, 2006. – 476 b.; Sayfullayeva R.R. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 200 b.; Tojiyev Y. O‘zbek tilida ega ekanlik-ega emaslik ma’nolarini ifodalovchi affiksalar sinonimiyasi. –Toshkent: Universitet, 1981. – 110 b.; Ne‘matov H., Rasulov R. O‘zbek tili tizimli leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.–128 b.

<sup>5</sup>Фуломов А. Ўзбек тилида кўплик категорияси. –Тошкент: Ўздавнашр, 1944. –56 б.

<sup>6</sup>Сафаров Ф. Ўзбек тилида сон-мидор микромайдон ва унинг лисоний-нуткий хусусияти: Фил. фан. номз. ... дисс. - Самарқанд, 2004. –134 б.

<sup>7</sup>Беньяминов Я.Р. Немис ва ўзбек тиллари қиёсий типологияси. – Тошкент: Ўқитувчи. 1982. – 222 с.

o‘zbek tilidagi “*bir*” va nemis tilidagi “*ein*” birliklarining artikl, olmosh, son va uslubiy ko‘makchi sifatidagi grammatik-semantik vazifalari tahlil qilinib, ularning kontekstga ko‘ra ma’no o‘zgarishi va frazeologik birliklar tarkibidagi o‘ziga xos jihatlarini ilmiy asoslash;

son birliklarining nemis va o‘zbek tillarida frazeologik vosita sifatida ishlatilish xususiyatlari ilk marotaba qiyosiy tahlil qilinib, ularning milliy-madaniy tafakkurda obraz yaratishdagi roli, metaforik yuklamasi hamda nutqdagi funksional ko‘lamini aniqlash;

nemis va o‘zbek tillarida numeralizatsiya hamda denumeralizatsiya hodisalari qiyosiy-tipologik asosda izchil tahlil qilinib, ularning amalga oshish mexanizmi tilning morfologik tipiga bevosita bog‘liqligini ilmiy jihatdan dalillash.

**Tadqiqotning obykti sifatida** nemis va o‘zbek tillaridagi son kategoriyasi tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** nemis va o‘zbek tillarida son kategoriyasining ifodalanish shakllari, mazmuniy xususiyatlari hamda funksional-semantik jihatlarini qiyosiy tadqiq qilish tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida qiyosiy-tipologik, distributiv-kontekstual, struktural-lingvistik, funksional-semantik, korpus lingvistik tahlil metodlari qo‘llanildi. Nemis va o‘zbek tillarida son kategoriyasini turli zamonaviy nazariyalar asosida tahlil qilindi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

o‘zbek tilining agglyutinativ va nemis tilining flektiv xususiyatlari hisobga olingan holda, ushbu tadqiqotda son kategoriyasining morfologik, leksik va sintaktik usullari qiyosiy-lingvistik yondashuv asosida tizimli ravishda dalillangan;

o‘zbek tilidagi *bir* va nemis tilidagi *ein* birliklarining artikl, olmosh, son va uslubiy ko‘makchi sifatidagi grammatik-semantik vazifalarining tahlili asosida, ularning kontekstga ko‘ra ma’no o‘zgarishi va frazeologik birliklar tarkibidagi o‘ziga xos jihatlari ilmiy asoslangan;

son birliklarining nemis va o‘zbek tillarida frazeologik vosita sifatida ishlatilish xususiyatlari qiyosiy tadqiqi asosida, ularning milliy-madaniy tafakkurda obraz yaratishdagi roli, metaforik yuklamasi hamda nutqdagi funksional ko‘lami aniqlangan;

nemis va o‘zbek tillarida numeralizatsiya hamda denumeralizatsiya hodisalarining lingvistik transformatsiya orqali amalga oshish mexanizmlari farqlanib, bu tilning morfologik tipiga bevosita bog‘liqligi ilmiy jihatdan dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Nemis va o‘zbek tillarida son kategoriyasining morfologik, leksik va sintaktik ifodalanish xususiyatlari asosida tahliliy jadval, sxema va taqqoslovchi jadvallar shakllantirilgan, bu esa ikki tilda sonlarni o‘rganayotgan talabalar, tarjimonlar va tilshunoslar uchun nazariy va amaliy qo‘llanma sifatida xizmat qiladi;

*bir/ein* matnda qo‘llanilishi bo‘yicha tahlillar berilgan, bu natijalar xorijiy til o‘rganuvchilar uchun turli vaziyatlarda sonning semantik yukini tushunishga yordam beradi;

frazeologik birliklarda sonlarning qo‘llanishi bo‘yicha tizimlashtirilgan materiallar tayyorlangan, ularning tarjimasini, ma’nosi va madaniy konnotatsiyasi

ham berilgan bo‘lib, nemis va o‘zbek tillari bo‘yicha frazeologik lug‘atlar yoki darsliklar uchun manba vazifasini bajarishi mumkin;

numeralizatsiya va denumeralizatsiya jarayonlarining aniq misollar asosida grammatik tahlillar ishlab chiqilgan, bu lingvistik tahlil ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi va leksikologiya yoki grammatik tadqiqotlar olib borayotgan mutaxassislar uchun tayanch material sifatida foydalanilishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** keltirilgan ilmiy xulosalarni chiqarishda aniq ilmiy manbalarga tayanilgani, son kategoriyaning qiyosiy-tipologik tadqiqida zamonaviy tahlil usullaridan foydalanilganligi, erishilgan natijalarning hamda misollarning badiiy matn qurshovida tahlil qilish bo‘yicha berilgan tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining *ilmiy ahamiyati* nemis va o‘zbek tillarining qiyosiy grammatikasiga oid nazariy qarashlarni boyitishga, grammatik kategoriyalarni kontrastiv aspektida o‘rganishga hamda qiyosiy tilshunoslikning ilmiy-metodologik asoslarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur tadqiqot oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida nemis va o‘zbek tillari grammatikasini o‘qitishda, qiyosiy grammatika bo‘yicha darslik, o‘quv qo‘llanma va uslubiy tavsiyalar yaratishda nazariy asos vazifasini o‘tashi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati* shundaki, oliy o‘quv yurtlarida qiyosiy-tipologik tahlil, tarjima nazariyasi va amaliyotiga doir turli metodik tavsiyanomalar tuzish, maxsus lug‘atlar va darsliklar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalari lingvistika sohasi uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi bilan birga, nemis va o‘zbek tillarini o‘qitishda, avtomatik tarjima tizimlarini rivojlantirishda ham qo‘llanilishi mumkin. Shuningdek, ish natijalari “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, “Qiyosiy tilshunoslik” “Tarjima nazariyasi” va “Lingvomadaniyatshunoslik” kabi fanlarga oid ma’ruza va seminar mashg‘ulotlari uchun zarur amaliy material bo‘lib xizmat qiladi.

### **Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.**

Nemis va o‘zbek tillaridagi son kategoriyasining tahlili bo‘yicha uslubiy va amaliy takliflar asosida:

o‘zbek tilining agglyutinativ va nemis tilining flektiv xususiyatlari hisobga olingan holda, ushbu tadqiqotda son kategoriyasining morfologik, leksik va sintaktik usullari qiyosiy-lingvistik yondashuv asosida tizimli ravishda dalillanganiga oid ilmiy yangilik va xulosalardan O‘zRFA QQB Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan 2017-2020-yillarda bajarilgan FZ-2016-0908165532 raqamli “Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi” mavzusida bajarilgan fundamental loyihada foydalanilgan (T.N.Qori Niyoziy nomidagi Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filiali 2024-yil 9-iyuldagi 284/1-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, fundamental loyiha doirasida tayyorlangan metodologik yondashuvlar asosida son kategoriyasining morfologik, qiyosiy, umumiy-leksik tizimdagi o‘rnini belgilash matn va tilshunoslik haqidagi olib borilgan tadqiqotlarning ilmiy saviyasini oshirishga yordam bergan;

o‘zbek tilidagi *bir* va nemis tilidagi *ein* birliklarining artikl, olmosh, son va uslubiy ko‘makchi sifatidagi grammatik-semantik vazifalari tahlil qilinib, ularning

kontekstga ko‘ra ma‘no o‘zgarishi va frazeologik birliklar tarkibidagi o‘ziga xos jihatlari ilmiy asoslanganligi haqidagi xulosalardan 2024-yillarda O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanalining “Bedorlik”, “Ijod zavqi”, “Ta‘lim va taraqqiyot”, “Millat va ma‘naviyat” eshittirishlari navbatdagi sonining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan. (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali davlat muassasining 2024-yil 20-yanvardagi 26-36-938-son ma‘lumotnomasi). Natijada, ushbu radioeshittirish mazmunan takomillashtirilib, ilmiy ma‘lumotlar bilan boyitilishiga erishilgan. Dissertatsiyada ilgari surilgan muhim ilmiy-ijodiy ahamiyatga ega bo‘lgan taklif va tavsiyalardan teleradiokompaniyaning ko‘rsatuv va eshittirishlarini tayyorlashga xizmat qilgan;

son birliklarining nemis va o‘zbek tillarida frazeologik vosita sifatida ishlatilish xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinib, ularning milliy-madaniy tafakkurdagi obraz yaratishdagi roli, metaforik yuklamasi hamda nutqdagi funksional ko‘lami aniqlanganligi haqidagi xulosalardan Buxoro davlat universitetida amalga oshirilayotgan O‘zbekiston AQSH 2020-2022-yillarga mo‘ljallangan “Access microschorship programm” dasturida foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2025-yil 8-sentabrdagi 06-01-06-57-son ma‘lumotnomasi). Natijada, til o‘rganuvchilarning bilimlarini tizimli rivojlantirish, nemis va o‘zbek tillaridagi son kategoriyasining frazeologik vosita sifatiga qo‘llanilishga doir erishilgan ilmiy natijalar ikki mamlakat ma‘lumotlar bazasini qiyosiy ishlab chiqish va shakllantirish takomillashtirilib;

numeralizatsiya va denumeralizatsiya hodisalarining nemis va o‘zbek tillarida qiyosiy-tipologik tahlili ilmiy jihatdan yoritilganligi haqidagi xulosalardan 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan № IL-402104209 raqamli “Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o‘zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish” nomli innovation grant loyihasini amalga oshirishda foydalanildi. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-til 15-martdagi 01/4-948-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida shakllantirilgan elektron platformada nemis va o‘zbek tillarida son kategoriyasini avtomatik tarjima qilinishiga xizmat qiluvchi dasturlar yaratish uchun xizmat qilishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 4 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma‘ruza qilinib, muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 16 ta ilmiy ish chop etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 5 tasi Respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda e‘lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 137 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari belgilangan, obyekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning birinchi bobi **“Son kategoriyasini o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlanib, ushbu bobda tilshunoslikda son tushunchasining falsafiy va lingvistik mohiyati, nemis va o‘zbek tilshunosligida ushbu kategoriyaning o‘rganilish masalalari tahlil qilingan.

Son inson tafakkurining eng qadimiy va fundamental tushunchalaridan biridir. U nafaqat predmetlar miqdorini bildiruvchi ifoda, balki tafakkur, til va borliq o‘rtasidagi aloqani namoyon etuvchi murakkab kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi. Son tushunchasi falsafada borliq va ong o‘rtasidagi munosabatni tushuntiradi, mantiqda tushunchalarning mantiqiy tuzilmasini shakllantiradi, matematikada modellar tizimi orqali ifodalanadi, tilshunoslikda esa grammatik birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Son tushunchasining falsafiy jihatlariga doir fikrlar uzoq tarixga ega, jumladan miloddan avvalgi V– IV asrlarda Platon o‘zining falsafiy qarashlarida son tushunchasini barcha mavjudlikning boshlang‘ich elementi sifatida baholaydi. Faylasuf sonlar tabiatga nisbatan birlamchi bo‘lib, barcha narsalar sonlardan tashkil topgan, olamning mohiyati esa jamlik va son hisoblanishini aytadi<sup>8</sup>. Aristotel (mil. avv. IV asr) tomonidan ilk bor son ideal kategoriya ta‘riflanadi<sup>9</sup>. U aynan kategoriyalar tizimi orqali “Borliq nima?” degan savolga javob bergan. U keltirgan asosiy kategoriyalar quyidagilardir: *mohiyat (substantia)*, *quantitas (miqdor, son)*, *qualitas (sifat)*, *relatio (munosabat)*, *ubi (qayerda – joy)*, *quando (qachon - vaqt)*, *situs (joylashuv)*, *habitus (egalik)*, *action (harakat)*, *passio (boshdan kechirish)*. Bu kategoriyalar ichida son eng muhim kategoriyalardan biridir.

L. Levi-Brul “Ibtidoiy tafakkur” asarida son kategoriyasining shakllanishi har qanday aniq to‘plamning bevosita sezgi orqali idrok qilinishidan boshlanadi va shu tarzda har qanday aniq to‘plamning miqdoriy xarakteri ongda tasvirlar orqali mustahkamlanishi haqida fikrlarni ilgari suradi<sup>10</sup>.

XVIII asrga kelib, faylasuf Immanuel Kant sonni “*a priori*” (lotincha: a priori – “oldindan”, “avvaldan”) bilish shakli sifatida izohlaydi. Unga ko‘ra, sonlar tajribadan kelib chiqmaydi, balki inson tafakkurining strukturaviy shartlaridan biridir. Son tushunchasi – bu ongning voqelikni tashkil qiluvchi shakllaridan biri bo‘lib, vaqt kategoriyasi bilan uzviy bog‘liq. Faylasuf inson voqelikni aynan son orqali o‘lchaydi va tavsiflaydi deb hisoblaydi<sup>11</sup>.

<sup>8</sup>Guthrie W.K.C. A History of Greek Philosophy. Vol. I: The Earlier Presocratics and the Pythagoreans. – Cambridge: Cambridge University Press, 1962. – P.178

<sup>9</sup> Аристотель. Метафизика. – Москва: Мысль, 1975. – С.78

<sup>10</sup> Lévy-Bruhl L. Primitive Mentality. –New York: Macmillan, 1923. – P. 218.

<sup>11</sup> Kant, Immanuel. Kritik der reinen Vernunft. Herausgegeben von Jens Timmermann. –Hamburg: Felix Meiner Verlag, 1998. – S.173.

Georg Vilgelm Fridrix Gegel sonni miqdorning belgilanish shakli sifatida talqin qiladi va har qanday narsa miqdoriy o'zgarishlar orqali rivojlanadi va bu miqdor o'zgarishi oxir-oqibat sifat o'zgarishiga olib keladi degan nazariyani ilgari suradi. Son bu jarayonda dialektik harakatdagi tafakkur vositasidir. U real dunyo hodisalarining tartibiy rivojini tushuntirish uchun ishlatiladi. Gegel talqinicha son faqat statik birlik emas, balki rivojlanayotgan tafakkur strukturasi hisoblanadi<sup>12</sup>.

XX kelib son kategoriyasining lingvistik asoslariga doir nazariy qarashlar keng tarqaldi. Strukturalizm yo'nalishining asoschisi Ferdinand de Sossyur tilni o'z ichki tizimiga ega bo'lgan mustaqil struktura sifatida o'rganib, bunda son tushunchasini grammatik kategoriya sifatida tahlil qiladi va son belgilar tizimi ichida semantik va fonetik farqlanish vositasi ekanligini ta'kidlaydi<sup>13</sup>.

Ushbu davr tilshunosligida yana bir muhim burilish Noam Chomsky nomi bilan bog'liq. U tomonidan yaratilgan universal grammatika nazariyasi lingvistik tadqiqotlarda inqilobiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Olim universal grammatika nazariyasida son kategoriyasini inson tafakkurining kognitiv modelidagi umumiy birlik sifatida ko'radi. Ya'ni, har qanday tilda son kategoriyasi mavjud bo'lib, bu biologik asoslangan grammatik tuzilma orqali ifodalanadi. Son bu jihatdan sintaktik va semantik strukturaning markaziy komponentini tashkil etadi.

Ma'lumki, o'rta asrlar davriga kelib roman-german tillari grammatikalari yunonlar va rimliklar tomonidan qo'yilgan poydevor asosida qurila boshlangan. Bu davr grammatikachilari "*modi significandi (belgilash usullari)*"ni ishlab chiqqan modistlar guruhi a'zolari son tushunchasining mohiyati va vazifalari va batafsil bayon etadilar<sup>14</sup>.

XIX asrda qiyosiy-tarixiy tilshunoslik paydo bo'lishida, birinchilardan bo'lib german tillarini o'zaro qiyoslab o'rganib chiqqan olim Yakob Grimm barcha so'zlarning, xususan son ma'nosini ifodalovchi so'zlarining ham tarixiy rivojlanishini tadqiq qildi. Uning "Deutsche Grammatik (Nemis tili grammatikasi)" (1822) asarida so'zlarning etimologiyasi va morfologik evolyutsiyasi o'rganilib, son birliklarining tuzilishida vaqt o'tishi bilan sodir bo'lgan diaxronik o'zgarishlarini izohlaydi<sup>15</sup>.

Yakob Grimm o'zining "Geschichte der deutschen Sprache (Nemis tili tarixi)" (1848) asarida Nemis tilining tarixiy taraqqiyoti, uning ildizi va boshqa german tillari bilan aloqasini yoritadi va fonetik qonuniyatlar va indoevropa ildizlariga doir qimmatli tahlillar beradi. O'zi tomonidan ishlab chiqilgan *Grimm qonuni* – german tillarida sodir bo'lgan fonetik o'zgarishlarni tushuntiruvchi qonunlardan biri bo'lib, undosh tovushlarning tarixiy o'zgarishini tushuntiradi. Yakob Grimm ushbu qonunning ba'zi jihatlari son kategoriyasining rivojlanishiga ham ta'sir qilganini ko'rsatadi (*wit – biz, wir - biz*).

Vilgelm fon Humboldt (1767–1835) nemis tilshunosligining asoschilaridan biri bo'lib, u til va tafakkur o'rtasidagi aloqa munosabatni tadqiq qiladi<sup>16</sup>. Olim son

<sup>12</sup> Гегель Г.В.Ф. Философская пропедевтика // Работы разных лет в двух томах. – Москва: Мысль, 1971. – С. 207-209.

<sup>13</sup> Соссюр Ф. де. Курс общей лингвистики. Москва: Издательство ЭКМО-Пресс, 1999. – С.105.

<sup>14</sup> Covington, Michael. Syntactic theory in the High Middle Ages // Cambridge studies in Linguistics, Vol.39. 1984. – P.203.

<sup>15</sup> Grimm J. Deutsche Grammatik. – Gottingen: Dieterich, 1822. – S.220.

<sup>16</sup> Humboldt von W. Über die Verschiedenheit des menschlichen Sprachbaues, Berlin: Dümmler, 1836. – S.420.

kategoriyasining grammatik birlik sifatida emas, inson ongining dunyoni idrok etish shakli sifatida shakllanishini ta'kidlaydi va til grammatik jihatdan murakkab bo'lsa, bu o'sha xalqning tafakkur darajasi va madaniyati haqida ma'lumot beradi deb fikr bildiradi. Shuning uchun, nemis tilida ko'plik shakllari aniq grammatik qoidalarga asoslanganligini bu til egalarining tafakkurida kategoriya shakllanishi rivojlanganligini ko'rsatishini ta'kidlaydi.

1966-yil V.Duden tomonidan yaratilgan "Grammatik der deutschen Gegenwartssprache (Hozirgi nemis tili grammatikasi)"<sup>17</sup> asarida nemis tilida son kategoriyasining yasalishi, sematik va leksik jihatlari tizimli ravishda yoritildi.

Tilshunos Klaus Dieter Kopke tadqiqotlari psixolingvistika va morfologik analogiya nazariyasiga asoslangan bo'lib, u nemis tilida ko'plik shakllarining hosil bo'lish usullari va omillari ushbu shakllarni belgilashini aniqlashga harakat qiladi. U nemis tilida ko'plik hosil bo'lishining qoidalar asosida emas, balki analogiya va chastota (so'zlarning ishlatilish tez-tezligi) orqali shakllanadi, deb hisoblaydi<sup>18</sup>.

Nemis tili grammatikasining, xususan, son kategoriyasining o'rganilishi qator rus tilshunos olimlarining ilmiy faoliyati bilan ham xarakterlidir. Jumladan, W.G.Admoni, Y.I.Shendels, O.I.Moskolskaya<sup>19</sup> kabilar o'zlarining tadqiqotlarida bu sohaning rivoji uchun ulkan hissa qo'shishgan.

Turkiy tillarda son ma'nosning ifodalanishi haqidagi dastlabki qarashlar o'rta asrlarga borib taqaladi. X asrda yashagan olim Mahmud Koshg'ariy tomonidan yozilgan "Devonu lug'otit turk"<sup>20</sup> asari nafaqat lug'at, balki turkiy tillar qiyosiy tavsifi keltirilgan qimmatli grammatik manba sifatida son ma'nosi haqidagi ma'lumotlarni ham o'z ichiga olgan. Mazkur asarida turkiy tillarda otlarda ko'plikning ifodalanishida *-lar* qo'shimchasining muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlab ko'rsatgan.

O'zbek tilida ko'plikning ifodalanishi xususidagi fikrlar Abdurauf Fitratning "O'zbek tili qoidalari to'g'risuda bir tajriba. Birinchi kitob: Sarf"<sup>21</sup> asarida ham uchraydi. Olim tub va yasama otlarni ko'plikda ifodalash uchun ularga *-lar* qo'shimchasi qo'shib aytish kerakligini ta'kidlaydi.

O'zbek tilshunosligida ko'plik ma'nosini maxsus o'rgangan olimlardan biri A.G'.G'ulomov bo'lib, u "O'zbek tilida ko'plik kategoriyasi" risolasida mazkur masalani atroflicha tahlil qiladi<sup>22</sup>.

1943-yilda prof. A.K. Borovkov, Z. Ma'rufov, A. G'ulomov tomonidan o'rta maktablar uchun tuzilgan "O'zbek tili grammatikasi" darsligi yaratildi. Bu darslik o'zining kamchilik va nuqsonlariga qaramay, o'zbek maktablarida ona tili o'qitish ishini yaxshilashda, shubhasiz, katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shuningdek, ushbu darslik o'zbek tilining qonun-qoidalarini birinchi marta keng yoritib

<sup>17</sup> Duden V. Grammatik der deutschen Gegenwartssprache. – Mannheim: Dudenverlag, 1966. –S.169-193.

<sup>18</sup> Köpcke K.M. Schemas in German plural formation. – Oxford, 1988. – P.303-305.

<sup>19</sup> Admoni, W.G. Der deutsche Sprachbau. Leningrad. – 1972, 303 S.; Шенделс Е.И., Современный немецкий язык. Морфология, - Москва: Высшая школа, 1973. – С. 239.

<sup>20</sup> Қошғарий М. Туркий сўзлар девони (Девони луғотит турк) // 3 жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Фан, 1960. – Б.499.

<sup>21</sup> Фитрат. Ўзбек тили қоидалари тўғрисида бир тажриба. Биринчи китоб: Сарф. Танланган асарлар. V жилдлик. -Тошкент: Маънавият, 2006. –IV жилд. –Б. 140-175.

<sup>22</sup> Ғуломов А. Ўзбек тилида кўплика категорияси. -Тошкент: Ўздавнашр, 1944. – Б.56.

bergan kitob bo'lishi bilan diqqatga sazovordir.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda oliy o'quv yurtlari uchun qator qo'llanma va darsliklar yaratildi. Ularda o'zbek tilida ko'plikning ifodalanishi bo'yicha ayrim fikrlar ifodalangan. Bu sohada qilingan ishlar qatoriga o'zbek tili grammatikasi bo'yicha rus tilida yaratilgan V.V. Reshetovning "Современный узбекский язык. Элементы фонетики, морфологии синтаксиса" (1948) qo'llanmasi, A.N. Kononovning "Грамматика узбекского языка" (1948) kitobi o'zbek tilini sistemali izohlab bergan asarlar sifatida alohida qimmatga molikdir.

O'zbek adabiy tilining kompleks ilmiy-akademik tasviriga bag'ishlangan asar birinchi marta "Hozirgi zamon o'zbek tili" nomida F.Kamolov tahriri ostida 1957-yilda nashr etildi. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Til va adabiyot institutida va respublikaning qator oliy o'quv yurtlarida ishlovchi bir guruh tilshunos olimlar tomonidan yozilgan bu asarda o'zbek tilining lug'at tarkibi, fonetik tizimi va grammatik qurilishi yoritildi. Mazkur asarda otlarning son kategoriyasi izohlashda professor A.G'ulomov fikrlariga tayanadi<sup>23</sup>.

Asrimiz boshida tilimizni o'rganishda nashr etilgan barcha darsliklar ko'rib chiqilar ekan, bu davrda an'anaviy hamda sistem tilshunoslikka oid tadqiqotlar teng olib borilgani kuzatiladi. Zeroki, sistem tilshunoslik, an'anaviy tilshunoslik natijalariga tayangan holda ish olib boradi. Jumladan, 2006-yilda Sh.Rahmatullayev tomonidan yozilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili"<sup>24</sup> darsligi til tuzilishiga tizim sifatida yondashilgan dastlabki ishlardan hisoblanadi.

F.Safarov "O'zbek tilida son-miqdor mikromaydoni va uning lisoniy-nutqiy xususiyati" nomli tadqiqotida o'zbek tilida son kategoriyasining ifodalanishi masalasiga maydon sifatida yondashadi<sup>25</sup>. Grammatik, leksik, sintaktik, fonetik va g'ayrilisoniy vositalar birgalikda tahlil etiladi. Mazkur ishning asosiy maqsadi son-miqdor maydoni vositalarining tuzilishi, mazmuni, vazifasi va qo'llanishini tadqiq qilishga qaratilgan.

Tadqiqotimizning ikkinchi bobi "**Son kategoriyasining leksik, morfologik va sintaktik ifodalanishi (nemis va o'zbek tillari misolida)**" deb nomlanadi. Bu bobda nemis va o'zbek tillarida son kategoriyasining leksik, morfologik va sinkaktik ifodalanishi qiyosiy tahlil qilingan.

Tilimizda ko'plik shakli **morfologik** ifodalanishini yuzaga chiqaruvchi asosiy ko'rsatkichlar tarkibiga otlarning *-lar* affiksi, fe'lning shaxs-son qo'shimchasi va egalik qo'shimchalari kiradi<sup>26</sup>.

Otlar birlikda alohida affikssiz ishlatiladi (kitob, bola, qalam), ko'plik esa *-lar* qo'shimchasi yordamida ifodalanadi (kitoblar, bolalar). Morfologik ifodalanishini yuzaga chiqaruvchi asosiy ko'rsatkich *-lar* affiksi otlarga qo'shilganda quyidagi ma'nolar anglashiladi:

1. Predmet miqdorining birdan ortiqligini bildiradi: *Iskandar gazeta ostidan issiqligi sezilib turgan somsalarni mashinaning orqa oynasi tagiga tashlab eshikni yopdi* (O'tkir Hoshimov, O'zbeklar).

<sup>23</sup> Камолов Ф. Хозирги замон ўзбек тили. – Т.: Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси нашриёти, 1957. – 526 б.

<sup>24</sup> Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: Universitet, 2006. – 476 b.

<sup>25</sup> Сафаров Ф. Ўзбек тилида сон-мидор микромайdonи ва унинг лисоний-нутқий хусусияти: Фил. фан. номз. ... дисс. - Самарқанд, 2004. -134 б.

<sup>26</sup> Фуломов А. Ўзбек тилида кўплика категорияси. -Тошкент: Ўздавнашр, 1944. -56 б.

2. Otdan anglashilgan ma'noning chama yoki taxmin ekanligini bildiradi: *Bir necha yillar o'tgach, madrasadagi o'sha kunlar faqat xotira bo'lib qoldi* (Oybek, Navoiy).

3. Yakka yoki juft tarzda qo'llanuvchi inson a'zolari nomlari ta'kidlovchi ko'plik tarzida ifodalanadi: *Xolidaning ko'zlarida yosh yiltilladi. Quyuyq qoshlari bir to'lg'anib qo'ydi* (O'tkir Hoshimov, Xayollarga bo'laman tutqun...).

4. Yakka yoki ko'plik shaklda qo'llanuvchi otlar sof ko'plikka yaqin miqdor ma'nosini ifodalaydi: *Chakkasidagi oqargan sochlari, ajin tushgan peshonasi bir lahza yorishib ketadi* (O'tkir Hoshimov, Dehqonning bir tuni).

5. Tizma yoki xo'jaliklar tarzida tuzilgan joy nomlari tarkibida ko'plik hamda har xillikni ifodalaydi: *Sakkizinchi sinfda irrigatsiya injeneri bo'lish, qaqqroq cho'llarga suv olib chiqish, suv omborlari qurish haqida orzu qilib yurdi*. (Pirimqul Qodirov, Uch ildiz).

6. Sanalish xususiyatiga ega bo'lmagan mavhum otlarga qo'shib, miqdorda ko'plik, turli-tumanlikni bildiradi: *Agar ko'kragida qasos o'ti bo'lmaganida bu ruhiy azoblar uni ezib tashlardi* (Tohir Malik, Shaytanat).

7. Sanalish xususiyatiga ega bo'lmagan mayda zarralardan tashkil topgan mahsulot, moddalar nomlariga qo'shilganda, tur, nav ma'nolarini anglatadi: *Keta balig'i nasl qoldirish uchun yuzlab kilometr yo'l bosib, toza suvlarga suzib keladi* (Tog'ay Murod, Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi).

8. Aslida yagona ekanligi ma'lum bo'lgan otlarga qo'shib ma'noni kuchaytirish uchun xizmat qiladi: *O'g'lining boshlariga, yelkalariga ko'z yoshlari to'kildirdi* (Said Ahmad. Qo'rako'z majnun).

9. Shaxs otlari, jumladan, atoqli otlarga qo'shib, umumlashtirish, birgalikda nomlashda xizmat qiladi: *Asad o'sha kech otasining aytganini bajarmadi – qo'shnisi Jalillarnikiga chiqmadi* (Tohir Malik, Shaytanat) kabi.

O'zbek tilida fe'lga qo'shilgan shaxs-son qo'shimchalari son kategoriyasining morfologik ifoda vositasi hisoblanadi. Birlilik ma'nosi *-m, -ay, -man, -san, -ing* qo'shimchasi bilan, ko'plik ma'nosi *-k, -miz, -lik, ish, -ingiz, -siz* qo'shimchalari bilan anglashiladi. Bu yerda shaxs va son birgalikda ifodalanadi va shuningdek, gapdagi ega bilan fe'l o'rtasida shaxs-son moslashuvi yuz beradi.

Egalik kategoriyasi sonni morfologik yo'l bilan ifodalash uchun xoslangan. Ushbu kategoriya shakllari beshta qo'shimcha bilan hosil bo'ladi: *-(i)m, -(i)ng, -(i)miz, -(i)ngiz, -(s)i*. Egalik qo'shimchalari ot, sifat, son, olmosh, undov, taqlid so'z, harakat nomi va sifatdoshga birikadi. Lekin qo'shimchalarning mazkur so'zlarga birikish imkoniyati bir xil emas. Ot, harakat nomi, olmosh, sanoq va jamlovchi songa to'g'ridan-to'g'ri birikadi. Sifat, tartib son, taqlid so'z bu qo'shimchalarni otlashganda oladi. Sifatdoshga ham to'g'ridan-to'g'ri (*aytganim yaxshi bo'ldi*), ham otlashganda qo'shiladi (*aytganimni topdingmi*). Egalik qo'shimchalari son ma'nosiga munosabatiga ko'ra uchga bo'linadi: *-(i)m, -(i)ng* birlikni, *-(i)miz* ko'plikni ifodalaydi. *-(i)ngiz, -(s)i* qo'shimchalari ikkala songa ham betaraf<sup>27</sup>.

Nemis tilida otlarining son grammatik kategoriyasining morfologik ifodalanishi otlarining ko'plik shaklini hosil qilish uchun bir nechta grammatik

<sup>27</sup> Сафаров Ф. Ўзбек тилида сон-мидор микромайдони ва унинг лисоний-нуткий хусусияти: Фил. фан. номз. ... дисс. - Самарканд, 2004. -134 б.

vositalar mavjud: qo‘shimchalar *-e, -(e)n, -er, -s*: *der Tag – die Tage; die Frau – die Frauen; das Kind – die Kinder; das Auto – die Autos*; umlaut (unli harflarning o‘zgarishi): *der Laden – die Läden, der Vater – die Väter*, artikllarning o‘zgarishi: *der Lehrer – die Lehrer; der Wagen – die Wagen*.

Nemis tilida ko‘plik yasalishida ba‘zan stilistik va dealektik farqlar mavjud bo‘ladi. Ya‘ni turli hudud va uslublarda otning ko‘pligi farq qiladi: *das Denkmal – die Denkmale* (adabiy til) / *die Denkmäler* (o‘rta nemis lahjasi); *der Boden - die Böden* (o‘rta nemis lahjasi) / *die Boden* (eskirgan); *der Bogen – die Bogen* (o‘rta nemis lahjasi) / *die Bögen* (janubiy nemis lahjasi); *das Komma – die Kommas* (o‘rta nemis lahjasi) / *die Kommata* (eskirgan, adabiy til).

Omonimlarning ko‘plik shakli turlicha bo‘ladi: *die Bank (die Bänke) – skameyka (skameykalar); die Bank (die Banken) – bank (banklar)*.

Fe‘ning shaxs-son qo‘shimchasi nemis tilida ham morfologik ko‘rsatkichdir: *-e, -st, -t* (birlik shaxs-son qo‘shimchalari), *-en, -t*, (ko‘plik shaxs-son qo‘shimchalari). *Ich lese Zeitung. Du antwortest richtig. Wir lernen Deutsch.*

O‘zbek tilida birlik va ko‘plikni leksik vositalar yordamida ifodalashda bir qator so‘zlar va birikmalar faol qo‘llaniladi. Ular orasida birlikni ifodalash uchun *bir* sanoq soni (*bir bola, bir tulki*); tartib son (*birinchi sinf, beshinchi eshik*); ko‘rsatish olmoshi (*shu bola, ana u uy*); gumon olmoshlari (*qandaydir ayol, allaqaysi buyum*); sifatlar (*yolg‘iz ona, ilk kitob*) va ko‘plikni ifodalashda ikki yoki undan yuqori sanoq son (*ikki bola, besh qush*); jamlovchi otlar (*xalq, qo‘shin, tuman*); sifat va ravishlar (*bir qancha bola, oz askar*); hisob so‘zlar (*bir savat meva, bir tovoq manti*) kabi leksik vositalar mavjud<sup>28</sup>.

Nemis tilida birlik va ko‘plikni ifodalashda leksik vositalar ham muhim rol o‘ynaydi. Birlik (Singular) odatda son, artikl, olmosh yoki sifat orqali namoyon bo‘ladi. Masalan, *eins* soni yoki *ein/eine* noaniq artikllari birlikni bildiradi: *ein Buch, eine Frau*. Shuningdek, birlikni ifodalaydigan olmoshlar ham mavjud: *jemand (kimdir), niemand (hech kim), man (noaniq olmosh), es (shaxssiz shaxs), einer/eine/eines (bittasi)* kabi. Bundan tashqari, birlik yakkalikni ta‘kidlovchi sifat va ravishlar orqali ham ifodalanishi mumkin: *allein (yolg‘iz), einzeln (alohida), einzig (yagona)*.

Ko‘plik (Plural) ma‘nosi esa sonlar, noaniq miqdor so‘zlari, jamlik otlar va faqat ko‘plikda ishlatiladigan otlar orqali ifodalanadi. Sanoq sonlar (*zwei, drei, zehn*) ko‘pchilikni bildiradi: *zwei Studenten, drei Bücher*. Noaniq miqdor so‘zlari ham ko‘plik ma‘nosini beradi: *viele (ko‘p), mehrere (bir nechta), einige (ayrim), wenige (ozchilik), alle (hamma), beide (ikkala)*. Jamlikni bildiruvchi otlar ham ko‘plik ma‘nosini ifodalaydi: *die Familie (oila), die Gruppe (guruh), die Mannschaft (jamoat), die Bevölkerung (aholi), das Publikum (tomoshabinlar)*. Shuningdek, faqat ko‘plikda ishlatiladigan otlar (Pluraletantum) mavjud: *die Eltern (ota-ona), die Leute (odamlar), die Ferien (ta‘til), die Kosten (xarajatlar), die Möbel (mebellar)*. Ba‘zi otlar esa jamlik ma‘nosini beruvchi affikslar orqali ko‘plikni ifodalaydi, masalan *Ge-, -schaft: das Gebirge, die Mannschaft*.

---

<sup>28</sup> Сафаров Ф. Ўзбек тилида сон-мидор микромайдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти Фил. фан. номз. ... дисс. - Самарқанд, 2004. -134 б.

Tilshunos olim A.G‘ulomov o‘zbek tilida sonning quyidagi sintaktik ifodalanish turlari mavjudligini ta’kidlaydi<sup>29</sup>:

1. Otga son bildiruvchi so‘z keltirish orqali (*o‘nta mahkama, to‘rt devor, qirqta xotin*).

2. Miqdor bildiruvchi so‘zlar bilan ifodalangan yakka aniqlovchi yo kesim orqali.

3. *Ust-bosh, oliq-soliq, katta-kichik* kabi jamlash yo‘li bilan.

4. Umumlashtiruvchi belgi orqali (*uchar qush*).

5. Aniqlangan belgisiga ko‘ra ko‘plikka dalolat beruvchi so‘zlar orqali (*turli daftarlari, har xil kitob*).

6. Qaralmishning ko‘pligi mavhum o‘rinlarda qaratqich orqali ifodalanadi (*qizlarning ko‘ngli, bolalarning quvonchi, yurakdagi dardlar*).

7. Kesimning ko‘pligi ega orqali ifodalanadi (*bu bolalar – student*).

8. Takrorlangan so‘z orqali ifodalanadi (*qop-qop un, qora-qora doskalar*).

Bunda ko‘rsatilgan birinchi, ikkinchi, beshinchi, sakkizinchi banddagi usullar sintaktik jihatdan bir xil. Bular “miqdor bildiruvchi aniqlovchi + ot” qolipi asosida hosil qilingan. To‘rtinchi bandda ko‘plik ifodalanmagan. Demak, sintaktik yo‘l bilan ko‘plik ifodalashning 4 xil usuli mavjud<sup>30</sup>.

Nemis tilida son kategoriyasining sintaktik ifodalanishi ot va sifatlarning rod, son hamda kelishik kategoriyalari bo‘yicha turlanishi, shuningdek, gap bo‘laklari o‘rtasidagi grammatik moslashuv (Kongruenz) vositasida amalga oshadi. Xususan, *Zehn Studenten haben die Prüfung bestanden* (*O‘n talaba imtihondan o‘tdi*) jumlasida *zehn Studenten* birikmasi ko‘plik ma’nosini ifodalab, *Studenten* oti son tomonidan aniqlanadi va kesim vazifasidagi *haben bestanden* fe‘l shakli ega bilan ko‘plikda moslashadi.

Nemis tilida son bilan birikkan otlar, odatda, grammatik ko‘plik shaklida qo‘llanadi: *drei Kinder – uchta bola, sechs Personen – olti kishi*. O‘zbek tilida esa miqdor sonlari bilan qo‘llangan otlar, qoida tariqasida, ko‘plik qo‘shimchasini qabul qilmaydi (*besh bola, olti kishi*). Mazkur holat ikki tilning son kategoriyasini ifodalashdagi tipologik farqlaridan biri hisoblanadi.

Nemis tilida son ma’nosi ega va kesim o‘rtasidagi grammatik moslashuv orqali ham ifodalanadi. Masalan, *Die Kinder spielen* (*Bolalar o‘ynayapti*) gapida *Kinder* oti ko‘plik shaklida bo‘lib, kesim vazifasidagi *spielen* fe‘li ham ko‘plikda qo‘llangan. Aksincha, *Das Kind spielt* (*Bola o‘ynayapti*) jumlasida ega birlikda bo‘lgani sababli fe‘l ham birlik shaklida kelgan. O‘zbek tilida esa ega va kesim o‘rtasidagi son mosligi har doim ham grammatik jihatdan majburiy emas, nemis tilida esa bunday moslashuv sintaktik tizimning qat’iy me’yorlaridan biri sanaladi.

Bundan tashqari, nemis tilida artikl va rod kategoriyalarining mavjudligi son kategoriyasining sintaktik ifodalanishida deklinatsiya tizimining ahamiyatini yanada oshiradi. Natijada son, rod, kelishik va sifatning o‘zaro moslashuviga asoslangan murakkab sintaktik konstruksiyalar yuzaga keladi. Masalan, *Mit einigen guten Freunden kann man alles erreichen* (*Bir nechta yaxshi do‘stlar bilan hamma narsaga erishish mumkin*) jumlasida *einigen guten Freunden* birikmasi

<sup>29</sup> Gulomov A. Ўзбек тилида кўплик категорияси. -Тошкент: Ўздавнашр, 1944. -56 б.

<sup>30</sup> Сафаров Ф. Ўзбек тилида сон–миқдор микромайдони ва унинг лисоний–нутқий хусусияти фил. Фил. фан. номз. .... дисс. Самарқанд – 2004, 142 б.

Dativ(o jo‘nalish) ko‘plik shaklida qo‘llanib, artiklsiz olmosh, sifat va otning son hamda kelishik bo‘yicha o‘zaro moslashuvini namoyon etadi. Bu holat nemis tilida son kategoriyasining sintaktik ifodalanishi morfologik vositalar bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Dissertatsiyaning “**Nemis va o‘zbek tillarida son kategoriyasi qiyosining funksional xususiyatlari**” deb nomlangan III bobida nemis va o‘zbek tillarida *ein/bir* sonining grammatik-semantik xususiyatlari, singularia tantum va pluralia tantum hodisalari, sonlarning frazeologik birliklardagi qo‘llanilishi hamda numeralizatsiya va denumeralizatsiya jarayonlarining ikki til tizimidagi o‘xshash va farqli jihatlari ilmiy tahlil qilingan.

Nemis va o‘zbek tillaridagi *ein* va *bir* son birliklarining qiyosini quyidagi tahliliy jadval orqali aks ettirish mumkin(1-jadvalga qarang):

### 1-jadval

#### *Ein/bir* sonining qiyosiy tahlili

O‘ZBEK TILI	NEMIS TILI
<p><b>Son so‘z turkumi doirasida vazifalari:</b></p> <p>1. Raqam/natural son: <i>Bir-u bir – ikki. Yetti qiz bir onaning bolasiday ahil turishardi.</i></p> <p>2. Hisob, miqdor, o‘lcham, chama ma’nolari: <i>Bir juft. Bir metr. Bir hafta. Bir tanob. Bir yil. Bir minut. Bir o‘ram. Bir to‘da. Bir soat. Bir asr. Bir burda. Bir dasta. Bir oydan beri tutolmaymiz.</i></p> <p>3. Noaniqlik tushunchasi: <i>Uning ko‘kragini bir nima chuqur ezdi.</i></p> <p>4. Ish-harakatning bir marta bajarilishi: <i>Odam dunyoga bir keladi.</i></p> <p>5. Belgi-xususiyat ma’nosining kuchayishi: <i>Boya Mahvash bir ajoyib gap aytdi.</i></p> <p>6. Ajratish, ta’kidlab ko‘rsatish: <i>Hamma rozi bo‘ldi, bir men rozi bo‘lmadim. Bu ishni bir o‘zi bajardi. Uyda bir o‘zim goldim.</i></p> <p>7. Kesim vazifasida (Birdamlik, umumiylik): <i>Kemaga tushganning joni bir.</i></p> <p>8. Bo‘rttirish ma’nosi: <i>Bir o‘lkaki, tuprog‘ida oltin gullaydi.</i></p> <p>9. Qo‘shma so‘zlar tarkibida keladi: <i>Bir vaqt, bir mahal, bir muncha, bir oz, bir qancha, ba’zi bir, har bir, hech bir, bir asosli, bir jinsli. Abdujalilboynikidagi ziyofatni Mulla Obid bir muncha taajjub ichida o‘tkazdi.</i></p> <p>10. Ayiruvchi bog‘lovchi: <i>Bir kattaning gapiga kir, bir – kichikning.</i></p> <p>11. Turg‘un birikmalar tarkibida: <i>bir pul, Kunlardan bir kun.</i></p>	<p><b>1. Son (Kardinalzahl) so‘z turkumi doirasida vazifalari:</b></p> <p>Natural son: <i>Ein plus ein ist zwei. (Birga bir ikki).</i></p> <p><b>2. Noaniq artikl sifatida:</b></p> <p>a) individuallashtirish ma’nolari:</p> <p>-turdosh otlar oldidan bitta elementni ajratish: <i>Mein Freund hat sich einen Wagen, ein Haus, eine goldene Armbanduhr gekauft. (Do‘stim o‘ziga bir mashina, bir uy va bir dona oltin bilakuzuk sotib oldi);</i></p> <p>-tasniflash va xarakterlash: <i>Er ist (und bleibt) ein Kind. (U bola);</i></p> <p>-avval tilga olingan birlikka ishora: <i>Ich möchte eine Tasse Kaffee, willst du auch eine? (Men bir finjon qahva ichmoqchiman, sen ham bitta xohlaysanmi?);</i></p> <p>-mavhum otlar oldidan kuchaytirish: <i>Ich möchte dir eine Freude machen. (Men senga bir quvoch ulashmoqchiman);</i></p> <p>-og‘zaki nutqda fikr kuchaytirish: <i>Ich hab einen Hunger! (Shunday ochmanki!);</i></p> <p>-Shaxs va asarlari nomlari oldidan ta’kidlash: <i>Nun sah er, daß auch ein Bonaparte Vorgänger hatte.</i></p> <p>-bir xil ismli shaxslarni farqlash: <i>In den Akten wird auch ein Planck genannt. (Hujjatlarda Plank ham tilga olinadi. Plank bu yerda taniqli bo‘lmagan shaxs).</i></p> <p>b) umumlashtirish ma’nosi (Gattungsbegriff): <i>Ein Kind will spielen Einen Menschen muss man lieben. (Insonni sevish kerak).</i></p> <p><b>3. Noaniq olmosh (Indefinitpronomen) sifatida:</b></p> <p>-kimdir, har kim noaniq olmoshi ma’nosida: <i>Dort kommt einer. (U yerda kimdir kelyapti);</i></p> <p>-zidlanish: <i>Sein ein Auge ist verletzt. (Uning bir ko‘zi jarohatlangan. ya’ni, ikkinchisiga qarshi qo‘yilgan holda “bir ko‘zi”).</i></p>

Yuqoridagi qiyosiy jadvaldan shuni ko‘rish mumkinki, o‘zbek tilidagi *bir* va nemis tilidagi *ein* birliklari funksional-semantik jihatdan o‘xshashliklarga ega bo‘lsa-da, ularning til tizimidagi maqomi va grammatik xususiyatlari sezilarli darajada farqlanadi. O‘zbek tilida bir son turkumiga mansub bo‘lib, miqdor ma’nosini ifodalash bilan bir qatorda noaniqlik, ajratish, ta’kidlash, kuchaytirish, umumlashtirish hamda turli stilistik-ekspressiv ma’nolarni ham yuzaga chiqaradi. Shu bois u son kategoriyasi doirasida bir qator leksik-semantik va sintaktik funksiyalarni mujassamlashtirgan ko‘p funksiyali birlik sifatida namoyon bo‘ladi.

Nemis tilidagi esa *ein* son (*Numerale*), noaniq artikl (*unbestimmter Artikel*) va noaniq olmosh (*Indefinitpronomen*) sifatida mustaqil grammatik vazifalarni bajaradi.

Nemis va o‘zbek tillarida faqat birlikda (Singularetantum) yoki faqat ko‘plikda (Pluraletantum) qo‘llaniladigan otlar tilning leksik-semantik hamda grammatik tizimida muhim o‘rin tutadi. Nemis tilida bunday otlar morfologik va sintaktik jihatdan qat’iy me’yorlashgan bo‘lib, ular faqat o‘zlariga xos son kategoriyasida qo‘llanadi va mos ravishda birlik yoki ko‘plik shaklidagi artikllar, fe’llar hamda boshqa grammatik vositalar bilan birikadi. O‘zbek tilida esa mazkur hodisa alohida grammatik kategoriya sifatida ajratilmasa-da, leksik-semantik darajada namoyon bo‘ladi.

Nemis tilida faqat ko‘plikda qo‘llaniluvchi otlar Pluraletantum (lot. “plurale” – “ko‘plik” va “tantum” – “faqat”) deb nomlanib, bu guruhga umumlashtiruvchi va jamlovchi otlar: *die Daten* – ma’lumotlar, *die Eingeweide* – ichki a’zolar, *die Kurzwaren* – kichik buyumlar; shaxs guruhlari nomlari: *die Eltern* – ota-ona, *die Zwillinge* – egizak; moliyaviy, iqtisodiy munosabatlarga tegishli otlar: *Aktiven* – moliyaviy aktivlar, *die Auslagen* – xarajat; geografik atoqli otlar (Mamlakat nomlari, tog‘ tizmalari nomlari, Orol guruhlari nomlari): *Die Niederlande* – Niderlandiya, *die Vereinigte Staaten von Amerika* – Amerika Qo‘shma shtatlar, *die Alpen* – Alp tog‘ tizmasi; tibbiyotga doir so‘zlar (kasalliklar nomlari va alomatlari): *die Masern* – qizamiq, *Wehen* – to‘lgoq, *Pocken* – toshma, *Blattern* – Chechak (yuqumli kasallik); vaqt birliklari va bayram nomlari: *die Ferien* – ta’til, *die Flitterwochen* – asal oyi, *die Fasten (Fasttage)* – ro‘za; xulq-atvorni ifodalovchi so‘zlar: *die Allüren* – erkalik, *die Dubiosen* – ikkilanish kabilar kiradi.

O‘zbek tilida pluralia tantum nemis tilidagi kabi aniq grammatik shakl sifatida mavjud bo‘lmasada, ba’zi juft so‘zlar (*ota-ona, aka-uka*) va takror so‘zlar (*choy-poy*) bilan ko‘plik ma’nosini ifodalaydi. Sintaktik jihatdan nemis tilida pluralia tantum dagi ot ega vazifasida kelganda, gapning kesimi ko‘plikda turishi majburiy xarakterda bo‘lib, o‘zbek tilida esa bundan qat’iy qoida mavjud emas.

Faqat birlikda qo‘llaniluvchi otlar ham olmon tilida mavjud bo‘lib, ular Singularetantum (lot. “singulare” – “birlik” va “tantum” – “faqat”) deb nomlanadi. Quyidagilar nemis tilida faqat birlikda qo‘llaniluvchi otlar hisoblanadi:

1. Ko‘pchilik sanalmaydigan aniq otlar: *Lärm* – shovqin, *der Schnee* – qor.
2. Mavhum otlar: *der Hass* – nafrat, *der Überfluss* – ta’sir, *die Vernunft* – mamnunlik, *der Dank* – rahmat;
3. Otlashgan fe’llar: *das Denken* – fikrlash, *das Verzeihen* – uzr so‘rash, *das Vergessen* – unutish;

4. Ko‘pchilik jism (modda) nomlari: *Gold – oltin, Helium – geliy.*

O‘zbek tilida ham nemis tiliga o‘xshash holda quyidagi otlar birlikda qo‘llanadi:

1. Mavhum otlar: *sevgi, muhabbat, tinchlik, baxt, g‘am, odamgarchilik, halollik, dard v.b.;*

2. Sanalmalmaydigan turdosh otlar: *suv, tuz, yog‘, havo, shakar;*

3. Jism nomlari (kimyoviy modda sifatida): *oltin, kumush, temir.*

Qiyosiy tahlil shu anglashiladiki, nemis tilida Singularetantum va Pluraletantum hodisalari morfologik jihatdan qat‘iy normallashtirilgan bo‘lib, o‘zbek tilida esa ularning qo‘llanishi asosan semantik mazmun hamda nutq konteksti bilan belgilanadi. Ammo ikkala tilda ham ushbu hodisalar leksik-grammatik tizimning muhim qismidir.

Ikki til doirasida son qatnashgan inson xarakter-xususiyatlarini ifodalovchi frazeologik birliklarni quyidagi kichik semantik guruhlarga tavsiflash mumkin (2-jadvalga qarang):

## 2-jadval

### Inson xarakter-xususiyatlarini ifodalovchi frazeologik birliklar

№	Semantik guruh	Nemis tilidagi misollar	O‘zbek tilidagi misollar
1	<b>Aqliy qobiliyatni ifodalovchi frazeologik birliklar</b>	<i>der/die Neunmalkluge</i> (to‘qqiz marta aqlli), <i>siebengescheit</i> (yetti karra aqlli), <i>für keine 2 Pfennige Verstand haben</i> (ikki pfennigga teng aqli ham yo‘q), <i>nicht bis 3 zählen können</i> (uchgacha sanay olmaslik)	<i>yetti o‘lchab bir kesadigan, ko‘pni ko‘rgan, bir pulga qimmat, bir tiyinga arzimas odam</i>
2	<b>Fe‘l-atvor (xarakter) sifatlarini ifodalovchi frazeologik birliklar</b>	<i>auf seinen 5 Augen beharren</i> (o‘z xatosini tan olmay turib olish), <i>jeden Pfennig dreimal umdrehen</i> (har bir tiyinga uch marta qaramoq), <i>in seinen 4 Wänden sitzen</i> (to‘rt devor ichida o‘tirmoq), <i>eine böse Sieben</i> (yovuz yetti, yovuz ayol)	<i>ikki oyog‘ini bir etikka tiqmoq (suqmoq), yuz marta aytsa ham eshitmaslik</i>
3	<b>Axloqiy-etik xususiyatlarini ifodalovchi frazeologik birliklar</b>	<i>der Diener zweier Herren</i> (ikki xo‘jayinga xizmat qiluvchi), <i>ein Mensch mit zwei Gesichtern</i> (ikki yuzli odam), <i>Doppelköpfiger Janus</i> (ikki boshli Yanus), <i>ein falscher Fünfziger</i> (soxta elliktalik), <i>der lachende Dritte</i> (kulayotgan uchinchisi)	<i>bir mayizni teng bo‘lib yeydigan, bir mayizni qirq kishi bo‘lib yemoq, bir ko‘z bilan qaraydigan</i>
4	<b>Sezgi xususiyatlarini ifodalovchi frazeologik birliklar</b>	<i>einen sechsten Sinn haben</i> (oltinchi sezgiga ega bo‘lmoq), <i>durch 10 Bretter sehen</i> (o‘n ta taxta ortini ko‘ra olmoq), <i>drei Meilen gegen den Wind riechen</i> (uch mil uzoqdan hidni sezmoq), <i>das zweite Gesicht haben</i> (ikkinchi nigohga ega bo‘lmoq, bashorat qila olmoq)	<i>yetti uxlab tushiga kirmaslik</i>
5	<b>Temperamentni ifodalovchi frazeologik birliklar</b>	<i>j-d kann keinen Moment still sitzen</i> (bir lahza ham tinch o‘tira olmaslik), <i>Eintags-Held</i> (bir kunlik qahramon), <i>noch halb im Traum sein</i> (hali yarim uyquda bo‘lmoq), <i>in der siebten Wolke sein</i> (yettinchi bulutda bo‘lmoq)	<i>ikki jahon ovorasi bo‘lmoq, yettinchi osmonda uchmoq</i>
6	<b>Psixo-fiziologik/fiziologik holatga baho beruvchi frazeologik birliklar</b>	<i>j-d ist nur eine halbe Portion</i> (yarim hissagina odam, ojiz kishi), <i>(noch) ein halbes Kind sein</i> (hali yarim bola bo‘lmoq)	<i>yarimta joni bor</i>

Yuqoridagi qiyosiy-tipologik tahlildan shu anglashiladiki, har ikkala tilda ham sonli komponentli frazeologik birliklar kishiga subyektiv baho berish vositasi sifatida xizmat qiladi hamda insonning xususiyatlarini ifodalashda muhim ekspressiv ahamiyat kasb etadi.

Keyingi “Nemis va o‘zbek tillarida numeralizatsiya va denumeralizatsiya jarayoni” nomli bo‘limida ushbu hodisalar qisman tahlilga tortildi.

Numeralizatsiya transpozitsiyaning bir turi bo‘lib, bunda til birliklari (odatda otlar) o‘zga so‘z turkumidan sonlar turkumiga o‘tadi<sup>31</sup>. Son so‘z turkumi o‘zining morfologik yopiq tizimi, semantik mustaqilligi va transpozitsiyaga yaroqsizligi bilan tilning boshqa mazmunli so‘z turkumlaridan keskin farq qiladi. Shu bois, tilshunoslikda ular alohida toifa sifatida qaraladi va ular bilan bog‘liq grammatik-derivatsion hodisalar doirasida numeralizatsiya cheklangan, ko‘proq nutqiy noaniq miqdoriy ma‘no kasb etadi. Bunda so‘zlar leksik ma‘nosini yo‘qotib, sonning sintaktik funksiyasini bajaradi<sup>32</sup>.

Qiyoslanayotgan tillarda ushbu hodisa o‘ziga xos lingvistik xususiyatlarga ega. Xususan, nemis tilida substantiv asoslarning miqdor bildirish imkoniyatlarini quyidagi misollarda kuzatish mumkin:

*eine Flut von E-Mails – elektron xabarlar oqimi (metaforik miqdor);*

*Es kamen eine Menge Leute. – Juda ko‘p odamlar keldi (miqdor ko‘rsatkichi);*

*Da war eine Unmenge an Problemen. – Haddan ziyod/cheksiz muammolar bor edi (giperbolik miqdor);*

*Eine Masse von Besuchern strömte herein. – Tashrif buyuruvchilar oqimi/to‘dasi yopirilib kirdi (kollektiv miqdor).*

O‘zbek tilida esa miqdor semantikasi, xususan, funktsional-semantik ko‘plik va noaniq miqdor kategoriyasi asosan kognitiv-semantik jihatdan turlicha tabiatga ega bo‘lgan nutqiy vositalar hamda numerativlar (hisob so‘zlar) tizimi orqali modellashtiriladi: *bir quloch gul, bir dasta jurnal, bir savat olma, bir uy odam, o‘n bosh qoramol.*

Biroq, *tog‘dek muammo, bir olam ish, behisob tashvish* kabi birliklar miqdor semantikasining metaforik va giperbolik kengayishi natijasida yuzaga kelgan semantik transformatsiyani namoyon etadi. Mazkur birliklarda son yoki miqdor kategoriyasi aniq kvantitativ ko‘rsatkich sifatida emas, balki referentning ko‘lamini, intensivligini va darajasini kuchaytiruvchi semantik vosita sifatida xizmat qiladi. Shu sababli, ular miqdorning bevosita sonli ifodasidan ko‘ra, ko‘plik ma‘nosining ekspressiv-konnotativ talqiniga asoslanadi. Demak, bunday konstruktsiyalarni numerallashtirishning tipik ko‘rinishi sifatida emas, balki miqdoriy ma‘noning semantik transformatsiyasi va intensivlashuvi natijasi sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Denumeralizatsiya – son turkumidagi so‘zlarning o‘ziga xos miqdor bildirish ma‘nosini qisman yoki butunlay yo‘qotib, boshqa so‘z turkumlari (ot, fe‘l, ravish)

<sup>31</sup> Виноградов В. В. Русский язык: грамматическое учение о слове. – М.: Высш. шк., 1986. – 640 с.

<sup>32</sup> Мигирин В. М. Очерки по теории процесса переходности в русском языке. – Бельцы, 1971. 370 с.

vazifasida kelishi jarayonidir. Biroq bu hodisa qiyoslanayotgan har ikki tilshunoslikda ham hamon bahsli masalalardan biri bo'lib kelmoqda.

Xususan, nemis tilida son o'zaklaridan quyidagi so'z turkumlari yasalishi denumeralizatsiyaga misol bo'ladi:

Fe'llar: *verdoppeln* (ikki hissa ko'paytirmoq), *halbieren* (yarim qilmoq);

Otlar: *die Eins* (bir baho/raqam), *die Hälfte* (yarmi), *das Viertel* (chorak);

Ravishlar: *einmal*, *zweimal*, *mehrmals* v.b.

Xuddi shunday jarayonni o'zbek tilida ham kuzatish mumkin. Son o'zaklariga so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shilishi natijasida ularning ma'nosi tubdan o'zgaradi va boshqa turkumga o'tadi. Masalan: *birlashmoq* (fe'l), *birlik* (ot), *ikkilanmoq* (fe'l).

Ushbu misollarda sonlar o'zining sof miqdor ma'nosini yo'qotib, harakat, narsa-buyum yoki holat belgilarini ifodalashga xizmat qilmoqda.

Sonlar turkumi yopiq leksik-grammatik tizim sifatida tavsiflanishi sababli, tillarda numeralizatsiya va denumeralizatsiya jarayonlarining tabiati hamda mexanizmlarini aniqlash masalasi hanuz bahsli hisoblanadi. Mazkur hodisalarning nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rganilishi zamonaviy tilshunoslik oldida turgan dolzarb vazifalardandir.

## XULOSA

1. Son tushunchasining tilshunoslikdagi izohi faqat grammatik birlik sifatida emas, balki falsafiy-mantiqiy va kognitiv asosga ega bo'lgan lingvistik kategoriya sifatida tahlil qilinishi lozim. Tadqiqot davomida son kategoriyasi semantik nuqtayi nazardan tafakkur jarayonining in'ikosi, ya'ni inson ongida mavjud bo'lgan kvantifikatsiya (miqdoriy aniqlik) modelining til orqali ifoda etishiga doir nazariy-ilmiy qarashlar o'rganildi.

2. Son tushunchasining kontekstda bildirgan ma'nosi har doim grammatik shakl bilan to'g'ridan-to'g'ri ifodalana olmasligi sababli, u leksik-semantik vositalar orqali anglashilishi mumkin. Bu esa son kategoriyasining ko'p qirrali, murakkab til birliklari orqali ifodalanishini ko'rsatadi.

3. Son kategoriyasining morfologik ifodalanishida o'zbek va nemis tillari o'rtasida tipologik tafovutlar mavjud bo'lib, o'zbek tilida ko'plik ma'nosi asosan -lar affiksi orqali ifodalanib, ko'plik shaklining hosil qilinishi yagona morfologik modelga tayanadi. Nemis tilida esa ko'plik kategoriyasi bir nechta morfologik paradigmalar vositasida amalga oshirilib, -e, -n, -en, -er, -s affikslari hamda ayrim hollarda umlaut hodisasi ishtirok etadi. Natijada o'zbek tilida ko'plikning ifodalanishi morfologik jihatdan nisbatan soddaroq va muntazam xarakterga ega bo'lsa, nemis tilida ko'plik shakllarining yasalishi morfologik variantlarning ko'pligi va paradigmatic murakkabligi bilan tavsiflanadi.

4. O'zbek va nemis tillarida son (birlik va ko'plik) ma'nosi nafaqat grammatik shakllar, balki leksik vositalar orqali ham ifodalanadi. Jamlikni bildiruvchi otlar o'zbek tilida (*xalq, jamoa, aholi*), nemis tilida (*Familie, Gruppe, Bevölkerung*) shaklan birlik bo'lsa-da, ma'no jihatdan ko'plikni anglatadi. Demak,

har ikki tilda son kategoriyasi faqat morfologik shakl bilan cheklanmaydi; leksik vositalar ham miqdor va son munosabatlarini ifodalashda muhim o‘rin tutadi. Bu jihat o‘zbek va nemis tillarining umumiy tipologik xususiyatlaridan biri ekanligi muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Sintaktik usul bilan son kategoriyasining ifodalanishi nemis va o‘zbek tillarida til strukturasi va sintaktik qurilishiga bevosita bog‘liqdir. Nemis tilida esa sintaktik ifoda qat‘iy grammatik moslashuv asosida amalga oshadi: *Drei Schüler kommen, Alle sind bereit, Jeder hat geantwortet*. Bunday tuzilmalar ot va fe‘l, o‘rtasida son bo‘yicha moslashuv talab qilinishiga asoslanadi. Nemis tilidagi artikl va olmoshlar (*jeder, keiner, einige*) sintaktik struktura ichida sonni aniqlovchi vazifani bajaradi. Har ikki til uchun sintaktik usul sonning kontekstual, funksional va nutqiy jihatdan ifodalanishini ta‘minlaydi.

6. Nemis tilida artikllar va rod kategoriyasi son ifodasining morfologik va sintaktik asosini tashkil etadi. O‘zbek tilida artikl tizimi mavjud emasligi bois, son kategoriyasi ko‘proq affiks va leksik birliklar bilan ifodalanadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, nemis tilida otlarning rodiga qarab artikllarning o‘zgarishi (*der, die, das*), shuningdek ularning ko‘plikdagi yagona shakli (*die*) sonni aniq belgilab turadi.

7. Nemis tilida son bilan birikkan otlarning ko‘plik shaklida qo‘llanishi grammatik me‘yor hisoblanadi (*fünf Bücher, drei Bleistifte*), ya‘ni ko‘plik ma‘nosi son va otning morfologik ko‘plik shakli orqali birgalikda ifodalanadi. O‘zbek tilida esa miqdor sonlari bilan birikkan otlar, odatda, birlik shaklida qo‘llanadi (*beshta kitob, uchta daftar*), chunki ko‘plik ma‘nosi sonning o‘zi orqali anglashiladi. Shu sababli o‘zbek tilida bunday konstruksiyalarda ko‘plik qo‘shimchasining qo‘llanilmasligi adabiy til me‘yoriga mos keladi. Nemis tilida istisno sifatida *eintausendein Nacht (ming bir kecha)* e‘tiborga molik.

8. Nemis va o‘zbek tillaridagi son komponentli frazeologik birliklar qator umumiy hamda umumiy va milliy-madaniy omillar bilan bog‘liq xususiyatlar ega. Umumiy jihatlar inson tafakkurining universal qonuniyatlari bilan bog‘liq bo‘lsa, farqli jihatlar har bir xalqning milliy mentaliteti, tarixiy taraqqiyoti, madaniy qadriyatlari va dunyoqarashining tildagi aksini namoyon etadi.

9. O‘zbek tilidagi *bir* va nemis tilidagi *ein* asosiy hisob soni sifatida miqdorni ifodalash bilan birga, turli nutqiy vaziyatlarda qo‘shimcha grammatik va semantik vazifalarni ham bajaradi. Nemis tilida *ein* son, olmosh va noaniq artikl sifatida qo‘llanib, predmet yoki shaxsning noaniqligini, umumiylikini hamda matnda yangi referentning kiritilishini ifodalashga xizmat qiladi. O‘zbek tilidagi *bir* esa son ma‘nosidan tashqari noaniqlik, ajratish, ta‘kidlash va umumlashtirish kabi ma‘nolarni yuzaga chiqaradi. Bu holat mazkur birliklarning son kategoriyasi bilan bog‘liq dastlabki kvantitativ ma‘nosi grammatik va semantik jihatdan kengayib, turli funksional vazifalarni bajaradi.

10. Nemis tilida Singularetantum (masalan, *Milch, Glück*) va Pluraletantum (masalan, *Eltern, Kosten*) hodisalari grammatik jihatdan qat‘iy belgilangan. O‘zbek tilida esa bunday ma‘nolar ko‘proq leksik-semantik vositalar orqali ifodalanadi.

Jumladan, *ota-ona*, *ust-bosh* kabi birliklarda jamlik ma'nosi grammatik shakl bilan emas, balki soʻzning ma'nosi orqali anglashiladi. Shunday qilib, nemis tilida son ma'nolari asosan grammatik vositalar bilan, oʻzbek tilida esa koʻproq semantik vositalar orqali namoyon boʻladi.

Ushbu tatqiqot kelgusida son kategoriyasi boʻyicha amalga oshiriladigan qiyosiy-tipologik tatqiqotlar uchun nazariy-metodologik asos vazifasini bajaradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**  

---

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ  
ШАРОФА РАШИДОВА**

**АЗАМАТОВА ГУЛНОЗА СУННАТОВНА**

**СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ КАТЕГОРИИ ЧИСЛА В  
НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и  
переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Академии наук Республики Узбекистан за номером B2023.3.PhD/Fil3815.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова.

Автореферат диссертации размещён на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) на веб-странице Научного совета ([www.samdchti.uz](http://www.samdchti.uz)) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:** Мирзаев Ибодулла Камолович  
доктор филологических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** Бегматов Мухтор Бегматович  
кандидат филологических наук, профессор

Рузиев Яраш Базарович  
доктор филологических наук (DSc), доцент

**Ведущая организация:** Каршинский государственный университет

Защита диссертации состоится «19» июня 2026 года в 10<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 при Самаркандском государственном институте иностранных языков (Адрес: 140117, Узбекистан, г. Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел: (99866) 234-29-36; e-mail: [info@samdchti.uz](mailto:info@samdchti.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирована за номером 63192). Адрес: 140117, Узбекистан, г. Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел: (99866) 234-29-36.

Автореферат диссертации разослан «5» июня 2026 года  
Протокол реестра рассылки за № 41 от «5» июня 2026 года



**Н.З. Насруллаева**

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

**У.У. Кулдошов**

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент

**Д.А. Киселёв**

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В мировой лингвистике исследование грамматических категорий на основе сравнительно-типологического подхода имеет важное методологическое значение для выявления универсальных закономерностей языковых систем, а также их национально-специфических особенностей. Категория числа как основная грамматическая категория, выражающая количественные отношения, формируется в тесной связи с системами имени существительного, местоимения и глагола, а также обеспечивает синтаксическое согласование и семантическую определённость. Различия в формальном выражении, грамматическом оформлении и функциональной нагрузке категории числа в немецком и узбекском языках требуют её углублённого сравнительного анализа. Данные аспекты способствуют развитию теоретического языкознания посредством определения места категории числа в языковой системе и её проявления в речи.

Несмотря на наличие в мировой лингвистике исследований, направленных на сопоставление грамматических категорий языков и выявление их структурных и семантических особенностей, категория числа в немецком и узбекском языках как объект комплексного сравнительного анализа в морфологическом, синтаксическом и семантическом аспектах изучена недостаточно. В немецком языке категория числа проявляется в тесной связи с грамматическим родом и системой артиклей, тогда как в узбекском языке она формируется на основе агглютинативных особенностей и выражается посредством самостоятельных грамматических средств. Данные структурные различия вызывают проблемы эквивалентности в процессе перевода и определяют необходимость функционального сравнительного анализа категории числа в рамках двух языков.

В условиях Нового Узбекистана вопросы языкознания всё чаще рассматриваются в контексте сравнительного языкознания и переводоведения, что способствует активизации исследований, посвящённых сопоставительному изучению немецкого и узбекского языков, а также анализу их специфических элементов. В этом смысле особое значение приобретает категоризация системы местоимений и систематизация характерных для двух языков единиц в семантическом и грамматическом аспектах. Это также наблюдается в расширении масштабов работ, направленных на сопоставительное изучение родного языка с другими языками. Следует отметить, что недостаточная изученность вопросов, связанных с грамматическими категориями немецкого и узбекского языков, расширение международного изучения узбекского языка и возрастание мирового значения немецкого языка обуславливают необходимость их сравнительного исследования, решения практических задач и анализа лингвистических проблем перевода. В этом контексте особую значимость приобретает высказывание Президента Республики Узбекистан Ш. М. Мирзиёева: “Мы рассматриваем развитие государственного языка во взаимосвязи с развитием ведущих иностранных языков мира, а также языков

и культуры представителей различных национальностей, проживающих в нашей стране”<sup>33</sup>. В частности, сопоставительно-типологическое исследование категории числа способствует более глубокому осмыслению лексической и грамматической системы исследуемых языков, выявлению их сходных и отличительных особенностей, а также созданию основы для совершенствования межъязыковых переводческих систем.

Данное диссертационное исследование в определённой степени служит реализации задач, обозначенных в указах Президента Республики Узбекистан: от 8 октября 2019 года № УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», от 21 октября 2019 года № УП-5850 «О мерах по коренному повышению авторитета и статуса узбекского языка как государственного языка», от 20 октября 2020 года № УП-6084 «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране», от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», а также в постановлении Президента Республики Узбекистан от 19 мая 2021 года № ПП-5117 «О мерах по выведению деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан на качественно новый уровень», постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан от 11 августа 2017 года № 610 «О мерах по дальнейшему совершенствованию качества преподавания иностранных языков в образовательных учреждениях», от 19 мая 2021 года № 312 «О мерах по эффективной организации популяризации изучения иностранных языков», а также в других нормативно-правовых документах, регламентирующих данную сферу деятельности.

**Связь исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики.** Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением I развития науки и технологий Республики Узбекистан – «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном и духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

**Степень изученности проблемы.** В мировом языкознании выполнено множество исследований, посвящённых описанию и интерпретации грамматических категорий числа.

В частности, в немецком языкознании грамматические особенности языка в структурном и функциональном аспектах были исследованы в трудах В. Г. Адмони, Г. Г. Шендельса, С. В. Дудена, В. Юнга, Х. Глинца, Т. Цибса, П. Кипарского, О. Бехагеля, Г. Хельбига, Й. Буши, Г. Цифонун, П. Айзенберга, Л. Хоффмана, Б. Штекера, П. Галльмана; в историко-фонетическом аспекте – Я. Гриммом; в философском – В. фон Гумбольдтом; в этимологическом аспекте – Х. Паулем, Г. Курциусом, К. Бругманом, Б.

---

<sup>33</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbek tili bayrami va o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 34 yilligi bilan O‘zbekiston xalqi uchun so‘zlagan nutqi// <https://www.gazeta.uz/oz/2023/10/21/uzbek-language/>. (Murojaat sanasi: 27.08.2025)

Дельбрюком и другими выдающимися лингвистами<sup>34</sup>. Их труды служат прочной методологической основой для анализа грамматической системы немецкого языка, его грамматических категорий, структуры предложения и этапов исторического развития языка.

В узбекском языкознании категория числа системно изучалась на основе описательного метода, системного подхода, а также структурного и текстового анализа. В этом направлении особое значение имеют исследования А. Кононова, А. Гуломова, Ш. Рахматуллаева, Р. Р. Сайфуллаевой, А. Ходжаева, Й. Тоджиева, А. Нурмонова, У. Турсунова, Х. Ньматова, Ф. Зикриллаева, Ш. Шахобиддиновой, И. Расулова, Ф. Сафарова и других учёных<sup>35</sup>. В узбекском языкознании грамматическая категория числа впервые была исследована профессором А. Гуломовым<sup>36</sup>. В дальнейшем Ф. Сафаров в исследовании «Количественное микрополе и его языково-речевые особенности в узбекском языке» подошёл к проблеме выражения множественности в узбекском языке с позиций полевой теории<sup>37</sup>.

Практические работы, посвящённые сопоставлению категории числа в немецком и узбекском языках, прослеживаются в исследованиях Я. Р. Беньяминов<sup>38</sup>.

Данное обстоятельство обосновывает актуальность настоящего исследования и обуславливает необходимость его всестороннего и комплексного изучения.

**Связь исследования с планами научно-исследовательских работ высшего учебного заведения, в котором выполнена диссертация.** Диссертационное исследование выполнено в соответствии с планом научно-исследовательских работ Самаркандского государственного университета

---

